

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**  
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

*мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция*

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2024 йил 10 май**

**Бухоро – 2024**

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни “**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

**Масъул муҳаррир:**

**БухДУ профессори, тарих фанлари доктори**

**Ҳ.Ҳ.Тўраев**

**Таҳрир ҳайъати ва аъзолари:**

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

**Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:**

**Темиров Ф.У. –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

**Умаров Б.Б. –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

**Носиров Ш.Ў–** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги  
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,  
маълумотлар, чиқарилган хуносалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг  
ўзлари масъул ва жавобгардир*

## QADIMGI BAQTRIYA DAVLATCHILIGI XUSUSIDA AYRIM MASALALAR

Raxmonov Zafar Zoir o‘g‘li

BuxDU Tarix va yuridik fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li

BuxDU “Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrasi, t.f.f.d. (PhD)

O‘zbek davlatchiligi tarixinning eng qadimgi davrlarini Qadimgi Baqtriya bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlagan edilar. Haqiqatdan ham shunday, so‘nggi yillarda Baqtriya tarixi yanada yorqinroq o‘rganilmoqda, fanga ilgari noma’lum bo‘lgan Sopolli madaniyati kirib keldi. Bu madaniyat ahli bronza davrida Qadimgi Sharq xalqlari bilan yaqindan madaniy aloqada bo‘lib, Markaziy Osiyoda eng qadimgi sivilizatsiyaga asos solishgan. Shu madaniyatning tadrijiy rivojlanishi natijasida mal.avv. IX asr oxiri va VIII asr boshlarida Qadimgi Baqtriya madaniyatiga, qolaversa Qadimgi Baqtriya davlatiga asos solingan.

Yunonlar bosqini davrigacha hukm surgan bu davlatning Qadimgi Sharq dunyosida o‘z o‘rnii bo‘lgan, Markaziy Osiyo xalqlarining etnik shakllanishida, madaniy taraqqiyotida beshik rolini bajargan. Bu fikrni hech bir tarixchi inkor etmaydi. Ammo, Qadimgi Baqtriya davlati tarixi yetarlicha o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbekistonlik arxeologlar Qadimgi Baqtriyaning moddiy madaniyati tarixini nihoyatda yaxshi o‘rganib kelmoqdalar, Ilk temir davrida Baqtriyada hududiy davlatlar shakllanganligi, hududiy davlatlarning konfederatsiyasi natijasida mil.av. VIII asrda Baqtriya podshohligiga barpo etilganligi boy arxeologik manbalar asosida isbotlandi. Baqtriya tarixi yozma manbalarda. Ktesey Knidskiy “Baqtriya kuchli va qudratli mamlakat, VIII asrdayoq mustaqil davlat bo‘lgan” deb ta’riflaydi. Ktesey Knidskiyning asarlari o‘rtas asr tarixchisi Fotiyning asarida ilova tariqasida bizgacha etib kelgan.[1]

Diodor o‘z asarida Ossuriya shohi Ninning Baqtriyaga qarshi jang tafsilotlarini yozgan. Asar boshida Ninning Semiramida uyylanish tafsilotlari tasvirlangan. Diodorning yozishiga qaraganda Nin Baqtriyani mag‘lub etish og‘rligini, aholisining ko‘p sonli ekanligini va jangda mohirligini, qal’alarining ko‘pligini bilgan. Shunga qaramay u ko‘p sonli qo‘sish yig‘adi va birinchi jangda Baqtriya shohi Oksiertdan tog‘ yo‘ldan tekislikka chiqadigan joyda mag‘lubiyatga uchraydi. Nin Baqtriya bilan bo‘ladigan yangi jangga tayyorlanadi.[2]

Diodor Baqtriya poytaxti Baqtr shahrini quyidagicha ta’riflaydi, «... Baqtr yirik shaharlardan biri, u go‘zal, egallab bo‘lmas qal’a». Nin Baqtr shahrini uzoq vaqt qamal qiladi. Shahar Semiramidaning ayyorligi natijasida ishg‘ol qilinadi. Baqtrliklar mag‘lubiyatga uchraydi. Baqtriya shohi o‘ldiriladi. Nin Baqtriyaning oltin va kumush - boyliklarini talaydi.

Bu voqealarni Pompey Trog, Arrian va Ksenofondlar ham o‘z asarlarida yoritgan. Ammo, voqealar tafsilotlarida, shohlarni ta’riflashda ayrim chalkashliklar bor. Ksenofont o‘z asarida Baqtriya va Ossuriya o‘rtasidagi urush Ossuriya shohi Kiaksar zamonda bo‘lgan deb yozadi.

Tadqiqotchilar o‘rtasida Ossuriya bilan O‘rtas Osiyo, xususan Baqtriya oralig‘idagi uzoq masofani hisobga olib, yuqorida ma’lumotlarni tarix sahifasidan chiqarib tashlash kerak, degan munozaralar ham uchraydi. Ma’lumki, bu masalaga I.M. Dyakonov oydinlik kiritgan. Uning izlanishlari tufayli topilgan Ossuriya ayg‘oqchilarining o‘z shohiga yozgan nomasidagi quyidagi ma’lumotdan so‘ng antik davr tarixchilari ma’lumotlari o‘z kuchini saqlab qoldi: "... lekin men lazuritni olib ketganimdan so‘ng, mamlakatda menga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlandi, shundan so‘ng men katta harbiy kuch yuborishni iltimos qildim"[3] . Ma’lumki, Yaqin Sharqda Baqtriya lazuritlari yuqori baholangan. Shu tariqa tarix faniga Qadimgi Baqtriya shohligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kirib keldi.

Ahamoniylar imperiyasiga qadar Qadimgi Baqtriya podshohligining bo‘lgan yoki bo‘lmanligi ikki xil - yozma va arxeologik manbalar asosida o‘z yechimini topadi.

Gerodot asarlaridan ham Baqtriyaning Qadimgi Sharq xalqlari orasida o‘z o‘rnii bo‘lganligini bilish mumkin. Jumladan, Kirning harbiy yurishlari lozim bo‘lgan mamlakatlar

## **Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция**

Vaviloniya va Misr qatorida Baqtriya va Saklar ham sanab o'tiladi [4]. Baqtriyaliklarning qurollashahalari va harbiy qo'shinidagi tartib ham Gerodot e'tiboridan chetda qolmagan [5]. U baqtriyaliklar yaratgan moddiy madaniyat O'rta Osiyoda yashaydigan boshqa xalqlarga o'rnak bo'lganligini aytib, ariylar, xorasmiyaliklar, so'g'diyilar, gandariyaliklar va dadiklar qurol yasashda baqtriyaliklarga o'xshatib yasaganligini misol qilib ko'rsatadi [6].

Baqtriya to'g'risida tarixiy tadqiqotlar va arxeologik ma'lumotlar. Ikkinci jahon urishidan keyingi yillarda Baqtriya to'g'risidagi ma'lumot va ilmiy tadqiqotlar B.G. Gafurov, I.M. Dyakonov, M.M. Dyakonov, V.M. Masson, V.A. Livshis asarlarida muhokama etila boshladi, ularda Ahamoniylar bosqiniga qadar Qadimgi Baqtriya davlati bo'lganligi qayd etilgan [7]

Ahamoniylar imperiyasiga qadar Baqtriya podshohligining faoliyat etganligini «Bahlika» (Baxlika) to'g'risidagi hind manbalari orqali isbotlash mumkin[8]. E.A. Grantovskiy ushbu qadimgi hind manbasining mil.av. V asrdan oldingi davrlarga oidligini aytib «Bahlika» terminini «Avesto»dagi «Baxtis», qadimgi fors manbalaridagi «Baxtris» yoki «Balx»-»-«Baxl» so'zlar bilan taqqoslaydi va ushbu geografik va etnik terminni qat'iy tarzda Baqtriya bilan bog'laydi. So'nggi yillarda fan olamiga kirib kelgan ushbu manba haqiqatan ham Ahamoniylar imperiyasiga qadar Baqtriya podshohligining mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Zardushtiylik dinining asosiy kitobi bo'lgan «Avesto»da Axuramazda barpo qilgan mamlakatlar orasida Baqtriya "Baxdi" shaklida tilga olinadi [9].

Ahamoniylar sulolasini va tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lgan Bexustun yozuvlarida Baqtriya to'rt marotaba tilga olingan. Bu yozuvlardan Baqtriya davlatchiligi yoki ahonisining ijtimoiy tabaqalari to'g'risida ma'lumotlarni o'qiy olmasak-da, Suza saroyini bezashda Lidiya va Baqtriyadan keltirilgan oltinlar, Baqtriya tarkibida bo'lgan Marg'iyanadagi Frada boshchiligidagi qo'zg'olon yoki geografik o'rni va chegaradosh mamlakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bor [10].

O'rta Osiyo xalqlari mil.av. VI-IV asrlarda Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan bo'lsa-da, uning moddiy madaniyati namunalarida, me'morchilik, shaharsozlik sohalarida ahamoniylarning madaniy ta'siri sezilmaganligi, o'zgarishlar geografik bo'linish va siyosiy boshqaruv sohalarida amalga oshirilganligini ko'rish mumkin .

O'tgan asrning 70 - yillarida Afg'oniston hududida V.I. Sarianidi boshliq SSSR - Afg'oniston arxeologik ekspedisiyasi faoliyat etgan va arxeologiyada Baqtriyaning yangi sahifalari ochila boshladi. Fanga Dashtli madaniyati kirib keldi va Baqtriya bronza davrida Qadimgi Sharq dunyosining ajralmas bir qismi ekanligi e'tirof etila boshladi. V.I. Sarianidi bilan bir vaqtida o'zbek arxeologi A.A. Asqarov O'zbekiston hududida, Sopolli va Jarqo'ton yodgorliklarida ilmiy izlanishlar olib borib bronza davrida Baqtriya Qadimgi Sharq sivilizasiyasining yangi o'chog'i ekanligini isbotlab berdi. Anre Frankfor boshliq Fransiyaning bir guruh olimlari Sho'rtog'ay yodgorligida, ikkinchi bir guruh olimlari esa akademik Paul Bernar boshchiligida Oyxonum yodgorligida tadqiqotlar olib borib Baqtriyaning bronza davrida Xarappa madaniyati bilan, antik davrlarda Yunon madaniyati bilan yaqindan madaniy aloqada bo'lganligini isbotlashdi. Eslab o'tilgan olimlar va A.S. Sagdullaev, Sh.B. Shaydullaevlar tomonidan ilk temir davriga oid Kuchuktepa, Tillatepa, Qiziltepa, Talashqontepa yodgorliklari o'rganildi. Ushbu tadqiqotlar asosida Baqtriyaning qadim tarixi butun bo'y basti bilan ko'riva boshlandi, Baqtriyaning boy tarixiy merosidan xabar beruvchi ma'lumotlar to'plandi [11].

Xulosa qilib aytganda yurtimiz mustaqilligidan so'ng Baqtriya tarixini o'rganishga munosabat o'zgardi. Tadqiqotchilar tomonidan Qadimgi Baqtriya tarixining asosiy xususiyatlari va davlatchiliginin vujudga kelishi masalalari tahlil etilmoqda. Baqtriyada ilk davlatlarning paydo bo'lishi va turlari, hukmdorlar unvonlari kabi masalalar akademik Rtveladze E.V. Baqtriyada ilk shahar madaniyatining shakllanishi T.Sh. Shirinov asarlarida tahlil etildi. So'nggi yillarda butun ilmiy tadqiqot ishlarini Baqtriyaning qadimgi davriga bag'ishlayotgan Sh.B Shaydullaevning tadqiqotlarida Baqtriya tarixining bir qator muammolari o'z yechimini topmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, 1959 . - № 73.
2. Диодор. Историческая библиотека. Кн. 17. II , 2-7 / пер. М.Е. Сергеенко / Ариан. Поход Александра. М. - Л., 1962.
3. Дьяконов И.М. Ассирио-аввилонские источники по истории Урарту // ВДИ. - М., - М., 1951. - . - № 2. - С. 335-336.
4. Геродот. История в девяти книгах. I, 153. (пер. Г.А. Страновского). - Л., 1972.
5. Геродот. История в девяти книгах. VII, 64. (пер. Г.А. Страновского). - Л., 1972.
6. Геродот. История в девяти книгах.... VII, 66.
7. Гафуров Б.Г. История Таджикского народа. Т. I. - М., 1955. - С. 31-32; Дьяконов И.М. Истории Мидии. - М., - Л., 1956. - С. 169; Дьяконов М.М. Очерк истории Древнего Ирана. - М., 1961; Массон В.М. Проблема древней Бактрии и новый археологический материал // СА. - М., 1958. - № 2. - С. 49-65; Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА, 73. - М., 1959; Лившиз В.А. Древнейшие государственные образования / ИТН. Глава III. – Душанбе, 1963. – С. 68-75.
8. Грантовский Э.А. Иран и иранцы до Ахеменидов. Основные проблемы. Вопросы хронологии. - М., 1998. - С. 106-107.
9. «Авесто», Видевдат, 8.
10. Струве В.В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. - Л., 1968.
11. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. – Т., Фан, 1977; Аскаров А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. – Т., Фан, 1983; Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы на юге Средней Азии. - Самарканд, 1993; Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. - М., 1977; Аскаров А.А., Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа. – Т., Фан, 1979; Сарианиди В.И. Раскопки Тилля-тепе в северном Афганистане. - Вып. I. - М., 1972; Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – Т., Фан, 1987; Кузьмина Е.Е. Бактрийский мираж и археологическая действительность // ВДИ. - М., 1978. - № 2. – С. 12-21.

**O‘ZBEKISTONDA BUXORO TARIXINI O‘RGANISHNING DOLZARB  
MASALALARI**

**Sobirov Umid Baxtiyorovich**  
*Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqlolada O‘zbekistonda Buxoro tarixini o‘rganishning dolzarb masalalari, Buxoro tarixini o‘rganishda fanlararo yondashuv, mintaqaning murakkab tarixini tushunish uchun turli metodologiya va istiqbollarning bugungi kundagi o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** fanlararo yondashuv, Buxoroning madaniy merosi, me’moriy tadqiqotlar, konservatsiya ishlari, iqtisodiy va madaniy landshaft, migratsiya va madaniy almashinuv jarayonlari.

Buxoro fors, yunon, arab, turkiy va mo‘g‘ullar kabi turli sivilizatsiyalar ta’sirida ikki ming yillikni qamrab olgan boy tarixga ega. Bu xilma-xillik uning tarixini o‘rganishni yanada qiziqarli qilishi mumkin. Tarixiy hujjatlarni raqamlashtirish va saqlash bo‘yicha sa’y-harakatlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularni kengroq auditoriyaga yetkazish uchun ko‘proq resurslar talab etiladi. “Buxoroga yo‘l olgan sayohatchilar shaharning dovrug‘ini jahonga taratgan noyob me’moriy obidalardan Ismoil Somoniylar maqbarasi (IX –X asrlar), Minorai Kalon (XII asr), Mag‘oki Attori masjidi (XII asr), Chashmai Ayub (XII-XIV asr), Toqi zargaron, Toqi telpakfurushon, Toqi sarrofon ansamblari (XVI asr), Ark (mil. avv. IV - III-asrlar - XX-asr boshi) Ulug‘bek madrasasi (1417), Kalon Jome masjidi (XVI asr), ayniqsa Labi hovuz

## **Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)**

Nosirova S.S. Nasimov D.B. AJDODLAR MEROSI - MATO HUNARMANDCHILIK NA'MUNALARINING ASRAB AVAYLASHNING DOLZARBLIGI .....	504
Kazakova Marifat Dexkanovna. OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJIDA BUXOROLIK AYOL OLIMALARNING O'RNI (BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI MISOLIDA) .....	508
Qurbanova Dilnora Nuriddin qizi. TARIX FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	510
Nosirova Yulduz O'ktam qizi. JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILMIY-PEDAGOGIK QARASHLARI - ZAMONAVIY O'QUVCHILARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI TARBIYALASH VOSITASI.....	511
D.Elova, Abdullayeva N. ME'MORCHILIK SAN'ATIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR (IX-XII ASRLARDA).....	513
Nilufar Jumayeva Ahmadovna, Shahlo Ortikova Salim qizi. ABU NASR FAROBIYNING ILMIY MEROSI VA UNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O'RNI.....	515
Shuxrat Yodgorovich Qudratov, Rashidov Xurshid. O'ZBEKISTON-TURKIYA: TARIXAN TARKIB TOPGAN ALOQALAR.....	517
Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li, Raxmonov Zafar Zoir o'g'li. QADIMGI BAQTRIYA DAVLATCHILIGI XUSUSIDA AYRIM MASALALAR.....	519
Sobirov Umid Baxtiyorovich. O'ZBEKISTONDA BUXORO TARIXINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI .....	521
منش ک اعظمی سعیده ساماند یان ف رهندگی پاپ تخت عنوان ب ۴ ب خاراند قش ب رسی .....	523
Меликов Н.А. САМАРҚАНД ВОҲАСИНИНГ АСОСИЙ СУВ ТАРМОҚЛАРИ ВА СУФОРИШ ИНШОАТЛАРИ.....	531